

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

<b>B.Sh.Shermuhhammadov, B.Q.Qurbonova</b> Bo'lajak pedagoglarni kompetensiyaviy yondashuv asosida pedagogik faoliyatga tayyorlash mexanizmini rivojlantirish.....	7
<b>I.Tuychiyeva, Z.Axunova</b> Yuqori sinf o'quvchilarining ma'naviy kompetentligini rivojlantirishning pedagogik asoslari.....	10
<b>D.R.Yuldasheva</b> Bo'lajak vokal o'qituvchilari kasbiy faoliyati samaradorligini oshirishga qaratilgan omillar.....	14
<b>A.R.Saydullayeva, B.Mahmudova</b> Yuqori sinf o'quvchilarini ijtimoiy hayotga tayyorlashda gender yondashuvning ahamiyati .....	20
<b>I.I.Soliyev</b> Oliy ta'lim muassasalari boshqaruvida institutsional mustaqillikni shakllantirish bosqichlari .....	26
<b>Sh.D.Xonbabayev</b> Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlashning pedagogik asoslari .....	31
<b>M.S.Xoshimov</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilarining kommunikativ kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati.....	36
<b>L.Z.Xolmurodov</b> Boshlang'ich sinf o'quvchilari koordinatsion qobiliyatlarini rivojlantirishning modulli texnologiyasi.....	41
<b>A.Sh.Bazarbayeva</b> Chet tillarini o'qitishda mashqlar tipologiyasi va tizimiga qo'yilayotgan zamonaviy talablar.....	45
<b>N.Sh.Abdiyeva</b> Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi .....	54
<b>F.A.Boltayeva</b> Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida kvest texnologiyasi orqali tadqiqiy bilish va reflektiv faoliyatni rivojlantirish imkoniyatlari.....	59
<b>M.E.Mazyayeva</b> Maktabgacha ta'limda neyropedagogika imkoniyatlaridan foydalanish .....	63
<b>D.D.Boymirzayeva</b> Oliy ta'lim muassasalarida tashkiliy va boshqaruv mexanizmlarining zamonaviy modellari .....	67
<b>M.O.Ismailova</b> Kitobxonlik madaniyati - inson umr yo'llarini yorituvchi so'nmas nur .....	71
<b>G.O.Shaxbazova</b> Bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining sport estetikasiga doir bilimlarini rivojlantirishning jismoniy-tarbiyaviy mazmuni .....	75
<b>M.F.Bekchonova</b> Fanlararo hamkorlikda biologiya yo'nalishi talabalarining biologik xavfsizlikni ta'minlashga doir bilimlarini rivojlantirishning nazariy jihatlarini .....	79
<b>X.A.Ibragimov</b> Ta'lim muassasalarida jismoniy tarbiya va sport tadbirlarining samarali shakllari .....	83
<b>A.T.Nazarov</b> Sport turizmi tavsifi va undan bo'lajak jismoniy tarbiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda foydalanish .....	88
<b>D.M.Xusanov</b> O'quvchilarni harbiy ideal haqidagi bilimlarini rivojlantirish metodikasini takomillashtirish zaruriyati.....	92
<b>Y.Y.Turakulov</b> Ta'limda raqamli texnologiyalarning pedagogik faoliyatga ta'siri.....	96
<b>Sh.G'.Xasanov</b> Bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashda pedagogik hamkorlikni loyihalashtirishning nazariy jihatlarini.....	102



UO'K: 378.014.15

**BO'LAJAK O'QITUVCHILARNI O'QUVCHILARDA MILLIY VA UMUMMADANIY  
KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISHGA TAYYORLASHNING PEDAGOGIK ASOSLARI****ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ПОДГОТОВКИ БУДУЩИХ УЧИТЕЛЕЙ К РАЗВИТИЮ  
НАЦИОНАЛЬНЫХ И ОБЩЕКУЛЬТУРНЫХ КОМПЕТЕНЦИЙ УЧАЩИХСЯ****PEDAGOGICAL BASICS OF PREPARING FUTURE TEACHERS FOR THE DEVELOPMENT OF  
NATIONAL AND GENERAL CULTURAL COMPETENCIES IN STUDENTS**

**Xonbabayev Shoxruxbek Dilshodjon o'g'li**   
Qo'qon davlat pedagogika instituti tayanch doktoranti

**Annotatsiya**

*Ushbu maqolada bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlash shakllari o'rganilgan, uning bugungi kundagi zarurati hamda pedagogik asoslari atroflicha yoritilgan.*

**Аннотация**

*В данной статье изучаются формы подготовки будущих учителей к развитию национальных и общекультурных компетенций у учащихся, подробно раскрываются ее необходимость и педагогические основы.*

**Abstract**

*In this article, the forms of preparation of future teachers for the development of national and general cultural competences in students are studied, its necessity and pedagogical foundations are detailed.*

**Kalit so'zlar:** pedagog, kasbiy kompetentlik, klassifikatsiya, takomillashtirish, kompetensiya, kompetent yondashuv, milliy va umummadaniy kompetensiyalar.

**Ключевые слова:** педагог, профессиональная компетентность, классификация, совершенствование, компетентность, компетентный подход, национальные и общекультурной компетенции.

**Key words:** pedagogue, professional competence, classification, improvement, competence, competent approach, national and general cultural competences.

**KIRISH**

Milliy va umummadaniy kompetensiya bo'lg'usi o'qituvchidan odatdan tashqari kuch-g'ayratni, qat'iyatni, tirishqoqlikni, tadqiqotlarni olib borishga intilishni, yangi vaziyat, yangi jamoaga kirishish qobiliyatini, samimiyatni, to'g'rilik va halollikni, o'tkir aql-idrokni, bir vositani boshqasi bilan tekshirib ko'rish malakasini talab qiladi. Shu sababli, ta'lim muassasalarida sifatli ta'limni amalga oshirish va samarasiz faoliyat yuritayotgan o'qituvchilar ishini innovatsion faoliyatga yo'naltirish, ularning fuqarolik pozitsiyasini mustahkamlashni ta'minlash zarur.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR**

O'zbekistonda bo'lajak o'qituvchilarda ijtimoiy-madaniy faollikni rivojlantirish masalalari M.Raxmanova, M.Quronov, X.Tojiboyeva, G.J.Tulenova, Q.Quranboyev; ijtimoiy-madaniy kompetentlikni rivojlantirish borasida N.Abdumuratova, D.Nafasov; ma'naviy va badiiy qadriyatlarining tarixiy-falsafiy, axloqiy-estetik mazmun-mohiyati A.G.Abdunabiyev, B.Abduraximov, S.SH.Alimov, A.Erkayev, F.A.Babashev, E.Umarov, M.Abdullayev, E.Xakimov, N.Y.Jurabayev, shaxsga yo'naltirilgan yondashuvlarida ta'lim oluvchilarning tafakkur imkoniyatlarini rivojlantirish borasida O.Abduraxmonov, D.Yakibova, R.Mavlonova, N.Raxmonqulovalar tadqiqotlar olib borishgan.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Bo'lajak o'qituvchilarni o'quvchilarda milliy va umummadaniy kompetensiyalarni rivojlantirishga tayyorlash quyidagilarni o'z ichiga oladi:

Tarixiy ong va tarixiy xotira. Milliy va umumadaniy kompetentlikning asosi tarixiy ong va xotira hisoblanadi. Milliy va umumadaniy kompetentlikning tarkibiy qismi bo'lgan tarixiy ong va xotira rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik zaruratini quyidagicha izohlash mumkin:

Birinchidan, jahonda va mamlakatimizda ro'y berayotgan o'zgarishlar, bugungi kunning siyosiy voqeligi hamda kundalik turmush ehtiyojlari jamoatchilikning tarixga bo'lgan qiziqishini pasaytirmadi, aksincha, o'tmishni yanada keskinroq idrok etishga olib keldi. Bu qonuniy jarayon, chunki yangi o'zgarishlar davri o'tmishni yuzaki o'rganish bilan cheklana olmaydi. U barcha davrlar hamda jarayonlarni har tomonlama chuqur anglashni talab qiladi. Chunki tarixiy xotirasiz kelajak mavjud emas va o'tganlarini xotiralamaydigan xalqning ertasi yorug' bo'lmaydi. Agar millat o'zining kelajagini porloq ko'rmoqchi bo'lsa, uning xotirasi uyg'oq bo'lmog'i shart. Boisi har qanday xalq va millat kechagi hayotidan, o'zi bosib o'tgan og'ir va mashaqqatli kunlardan, tarix sinovlaridan zarur xulosa va saboqlar chiqarmog'i zarur.

Ikkinchidan, xalqlar hayotidagi burilish pallalari, urushlar va inqiloblar, iqtisodiy yuksalishdan depressiya va tanazzulga o'tish, jamiyat hayotidagi tub o'zgarishlar doimo tarixga qiziqishni kuchaytirgan. O'zbekiston rivojlanishining yangi bosqichi keyingi rivojlanish yo'llarini tanlash, demakki, bosib o'tilgan yo'lni baholashning ham, istiqbolga mo'ljallangan dasturlarni ishlab chiqishning ham usullari, shakllari, tamoyillari bilan bog'liq masalalarni kun tartibiga qo'ydi. Bunday savollarning javobi har qanday jamiyatni har bir yangi avlod siymosida mavjud ahvolga olib keluvchi sabablarni qayta anglashga undaydi.

Uchinchidan, bugungi paytda o'tmishga qiziqish, undan hozirgi kun uchun javob topishga intilish hamda kelajakni oldindan ko'rish uchun rivojlanishning biron-bir yo'lini tanlash umumiy tus olmoqda. Chunki o'tmish, bugun va kelajakni uzviy aloqadorlikda anglash to'g'ri ijtimoiy qarorlar qabul qilish imkonini beradi.

To'rtinchidan, hayotda amalga oshirilayotgan barcha o'zgarishlar xalqning mentalitetini, uning tarixiy ongini va tarixiy xotirasini, tarixiy va milliy xususiyatlarini, an'analari hamda urf-odatlarini yanada to'liq hisobga olish, uning o'z o'tmishini, iste'dodli O'zbekiston xalqi tomonidan ko'p asrluk boy tarixi davomida to'plangan barcha go'zal narsalarni teran bilishidan kelib chiqadi. Shuning uchun biz buyuk davlat qurishni o'z oldimizga maqsad qilib qo'ygan ekanmiz, buning uchun zamonaviy siyosiy, iqtisodiy, ilmiy-texnikaviy, ma'naviy imkonlarimiz bilan bir qatorda tarixiy asosimiz ham bor. Shu bois o'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi.

Beshinchidan, buyuk ajdodlari merosidan xabardor bo'lish yosh avlodda nafaqat o'z tarixi bilan faxrlanish tuyg'usi, balki unga munosib bo'lish, undan o'rnak olish ma'suliyatini ham shakllantiradi. O'zbekistonda yoshlar kelajak vorislari sifatida katta ijtimoiy – demografik qatlamni tashkil etadi. vatan kelajagi ko'p jihatdan mana shu yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirish masalalarining qanchalik samarali hal etilishiga bog'liq. Yoshlarda tarixiy ong va tarixiy xotirani shakllantirish muammosi o'rganish shu o'rinda o'z dolzarbligini ko'rsatmoqda.

2. Milliy va umumadaniy qadriyatlar, ideallar va madaniy ko'nikmalar. Ma'lumki, har bir millatning qiyofasi, uning katta va kichikligidan qat'i nazar, eng avvalo, uning milliy ongi va psixologiyasida yorqin gavdalanadi. Milliy ong - ijtimoiy ongning tarkibiy qismi bo'lgan etnik ongning asosiy shaklidir. Ayni mahalda shuni nazarda tutish zarurki, "ijtimoiy ong - bu obyektiv olam va ijtimoiy borliqning kishilar ongida aks etishidir. Shunday ekan, har bir xalq, elat va millat o'zining ijtimoiy hayotini aks ettiradigan etnik ongga egadir. Mazkur etnik ongning tarkibiy qismini urug', qabila, elat va millatlarning ongi tashkil etadi. Etnik ong ijtimoiy ongga nisbatan konkret tushuncha bo'lib, unda urug', qabila, elat, millatlarning ijtimoiy hayoti, madaniyati, urf-odat va an'analari, tarixi, ijtimoiy psixologiyasi, dunyoqarashi aks etadi. Tadqiqotchi olim O.G'aybullayev fikricha, "hozirgi zamonda yashayotgan yoshlarning ongiga Vatanni sevish, umuminsoniy axloqiy-ma'naviy qadriyatlarni singdirish, milliy o'zligini anglatish; mehr-shafqatli, vijdonli, andishali qilib tarbiyalash" [1] da milliy ong va uning asosiy tarkibiy elementlari bo'lgan tarixiy ong hamda tarixiy xotiraning roli ulkan bo'lib, ular katta ahamiyat kasb etadi. Demak, "yuksak milliy onglilikning yana bir muhim belgisi — vatanparvarlik, millatparvarlik bo'lib, ular tarixiy ong va tarixiy xotira bilan bog'liq" [4]. Bo'lajak o'qituvchilarda mana shunday qarashlar asosida umumadaniy kompetentlikni shakllantirish asosida ularda vatanparvarlik, millatparvarlik, fidoyilik va daxldorlik fazilatlarini rivojlantirish mumkin bo'ladi.

Milliy va umuminsoniy qadriyatlarning dunyoqarashga ta'sir etadigan yana bir jihati — milliy birlik, birdamlik, hamjihatlik, hamdardlik, hamkorlik tuyg'usidir. Milliy birlik, birdamlik, hamkorlik, hamdardlik, ahillik ma'lum anglangan mushtarak maqsadlar sari borishdir. Bo'lajak o'qituvchilar

## PEDAGOGIKA

mana shu tuyg'ۇ asosida o'zining alohida etnik guruhga mansubligini anglaydi, uning tarixi va taqdirini chuqurroq bilishga intiladi, Vatan, xalq manfaatlari yo'lida fidoyilik namunalarini ko'rsatadi, o'z xalqiga mansub kishilar bilan birlashib, milliy manfaatlarni himoya etishga harakat qiladi. Milliy birlik tuyg'usi milliy ongi, tarixiy ongi, tarixiy xotirasi va dunyoqarashiga chuqur singib ketgan millatlarga yorqin istiqbolga ega bo'ladi, o'z maqsadlariga erishadi. Ularni itoatli qullarga aylantirish oson bo'lmaydi.

Milliy va umummadaniy qadriyatlarni anglash asosida yuzaga keladigan milliy birlik - milliy iroda, milliy vijdonning ham asosidir. Milliy birlik oldin kishilarning qalbida mafkura, e'tiqod, axloq, iroda, burch, vijdon sifatida shakllanadi, shundan keyingina katta tarixiy, ijtimoiy-siyosiy kuch sifatida ahamiyat kasb etadi va dunyoqarashga ta'sir ko'rsatadi. Ayni mahalda tarixni obyektiv, chinakam bilish milliy ongni shakllantiribgina qolmay, yoshlarni separatizm yuzaga kelishidagina emas, balki diniy ekstremizm, millatchilik va shovinizmdan ham himoya qilishda ishonchli qalqon bo'lib xizmat qiladi. Millat vakillari o'rtasida birdamlik, ahillik, hamjihatlik, umumiy maqsadlar yo'lida bir yoqadan bosh chiqarib, qo'lni qo'lga berib harakat qilish mas'uliyati faqat shu asosdagina shakllanadi. Mahalliychilik, guruhbozlik milliy ong, tarixiy ong, tarixiy xotira darajasi pastligidan, kishilar o'zlarining bir etnik guruhga mansub ekanliklarini chuqur anglab yetmaganligidan, dunyoqarashning milliy zamini zaifligidan kelib chiqadi.

Bo'lajak o'qituvchilarning milliy va umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga tayyorlash asosida milliy qadriyatlarni asrash, ularni o'rganish va saqlab qolishga qaratilgan tadqiqotchilik tizimini yaratish mumkin bo'ladi. Milliy o'zlikni anglash jarayoni chuqurlashishining asosiy shartlaridan biri ham shudir. Biz o'zbeklar insoniyatning ma'naviy kamolotiga ijobiy ta'sir ko'rsatgan boy madaniy meros, buyuk qadriyatlarning egasimiz.

Yaqin – yaqinda o'z madaniy merosidan bexabar bo'lib qolgan millatlar orasidan o'rin olgan edik. Bu bizning milliy loqaydligimiz bilan belgilangan fojia emas, balki 135 yil davomida izchillik bilan amalga oshirib kelingan mustamlakachilik siyosatining natijasidir. Hozirgi kundagi eng muhim vazifalaridan biri ham feodal tarqoqlik, mustamlakachilik va sovet tuzumi davrida kelib chiqqan g'aflet uyqusidan tezroq uyg'onish, millatimizning iste'dodi, qobiliyati, qadru qimmatini jahonga to'laroq namoyon etish, yoshlarni tarixiy meros va qadriyatlarimiz bilan yaxshiroq qurollantirishdir. Toki o'zbeklar kim ekanini ularning o'ziga emas, balki jahondagi boshqa xalqlar ham yaxshi bilsin. Yaqin vaqtga qadar o'tmish ajdodlarimiz jahon fani va madaniyatiga qo'shgan hissasi o'zimizdan ko'ra, dunyodagi boshqa ko'plab mamlakatlarda ma'lum va mashhur edi [5]. Buning uchun esa bo'lg'usi kadrlarda milliy va umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish asosida erishish va tarixiy xotirani tiklash mumkin. Chunki tarix o'tmish voqealarning oddiy bayoni emas, balki katta tarbiyaviy omil hamdir. Tarixiy voqealarni bilish asosida talabalarda o'z yurtiga nisbatan hurmat, muhabbat tuyg'ulari shakllanadi, yoshlar ota-bobolarining qilgan ishlari bilan faxrlanishni o'rganadilar, shu asosda milliy iftixor shakllanadi, milliy ong o'sadi, dunyoqarash mustahkamlanadi.

Milliy va umummadaniy merosini avaylab asrash. Umummadaniy bilim va ko'nikmalar tarixiy, ma'anviy va madaniy qadriyatlar, merosni o'rganishni, anglashni angladi, ularni asrab-avaylashga qaratilgan dunyoqarashni shakllantiradi. Milliy va umummadaniy merosini avaylab asrash milliy burch va mas'uliyatni anglash hamdir. Mas'uliyat har bir fuqaro o'z manfaatlarini millat, milliy davlat manfaatlari bilan bog'lay olishidir, bu boradagi o'z burchini his qilishidir. Milliy burch va mas'uliyatning muhim jihati milliy manfaatlarni anglashda ko'rinadi.

Taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida shaxs, uning faoliyati, qobiliyati va imkoniyatlari, manfaatlar tobora serqirra bo'lib ko'zga tashlanmoqda. Lekin bu yangi sharoitlar va imkoniyatlar har bir shaxs faqat o'z manfaatlar doirasida qolib ketib, boshqalar bilan ishi bo'lmasligi kerak, degan ma'noni bildirmaydi. Shaxsiy xudbinlik ham dunyoqarash zaifligining ko'rinishidir. Agar kishilar o'z maqsadlari qobig'iga qolib, ularning har biri alohida dunyo bo'lib qolsa, manfaatlar o'rtasidagi ziddiyatlar ham kuchayib ketadi. Bunday holda ma'naviy tubanlashish boshlanadi, jamiyatda ijtimoiy falokatlar yuz beradi. Shaxsiy manfaatlar muammosi qanchalik tez va har tomonlama hal etilmasin, baribir, har bir inson mavjud ijtimoiy munosabatlar majmuasiga kiradi. U qanchalik aqli, tadbirkor, ishbilarmon bo'lmasin, butun hayotiy faoliyati odamlar jamoasidagi, millat, davlat hayotidagi munosabatlardan tashqarida bo'lmaydi. Bu boradagi bog'liqlik har bir shaxsga muayyan burch va mas'uliyat talablariga rioya qilish majburiyatini ham yuklaydi. Insonlar muayyan jamiyatda birlashib yashashining asosiy shartlaridan biri ham milliy va fuqarolik mas'uliyati birligi hisoblanadi. Mas'uliyatni sezmay, o'z huquqi uchun kurashish ham ma'naviy zaiflikning belgisidir.

Burch, mas'uliyat tuyg'usi inson o'z haqqi, huquqini, jamiyat oldidagi burchini anglashiga asos bo'ladigan ma'naviy zamindir. Chunki "bunga tarix guvoh... bizga bergan buyuk ne'mat — ma'naviyatga hech qachon hiyonat qilmaganmiz, qilmaymiz ham" [2].

Shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning milliy va umummadaniy kompetentlikni rivojlantirish jarayoniga tayyorlashda ularning tarixiy tafakkuri va dunyoqarashini ham rivojlantirish talab etiladi. Buning uchun uzluksiz ta'limda trixni o'qitishning yangicha formatini yaratish, tarixga yangicha yondashuvlarni olib kirish, tarixni o'rgatishda mafkuraviy maqsadni amalga oshirmaslik, obyektiv tarix haqiqatini o'rgata bilish talab etiladi. Ta'lim makoni ilm-fan va amaliyotni konkret sharoitlarda modellashtiruvchi «tirik tizim» sifatida namoyon bo'ladi. D.I.Mendeleyevning – «Talabalarga nafaqat bilimlar, fanni ham berish kerak» [3] – degan so'zlari hozirda ham o'z dolzarbligini yo'qotgani yo'q.

Xalqimiz o'zining g'oyatda boy ilmiy, falsafiy, adabiy va madaniy merosi bilan jahonga mashhurdir. Yurtimiz dunyoga ilm-fanning, madaniyatning barcha sohalarida ko'plab buyuk siymolarni yetkazib berdi. Abu Rayxon Beruniy, Ibn Sino, Muso al-Xorazmiy, Ahmad al-Farg'oni, Abu Nasr Farobiy, Mirzo Ulug'bek kabi allomalarni, Lutfiy, Alisher Navoiy, Bobur, Furqat, Muqimiy kabi mutafakkirlarni jahon madaniyati xazinasiga qo'shgan hissasi beqiyosdir. 1004 yilda Urganchda «Ma'mun Akademiyasi» tashkil etilib unda ijod qilgan olimlar soni 300 tadan oshgan. Bu dargoh ilm-fanning turli sohalarini bo'yicha samarali ishlarni olib bordi. Astronomiya, riyozat, tibbiyot, falsafa, mantiq, musiqa, adabiyot va boshqa fanlar rivojiga katta e'tibor berildi. Turkiston azal-azaldan ilm-fan va madaniyatning adabiyot va san'atning eng qadimiy markazlaridan biri bo'lib kelgan. Ayniqsa, IX–XV asrlarda Turkiston xalqlari safidan Sharq va G'arbda o'rta asr matematika ilmi va maktabining asoschisi al-Xorazmiy, «Ustodi soniy» – «Ikkinchi muallim» yoki sharq Aristoteli unvoniga sazovor bo'lgan Abu Nasr Forobiy, tibbiyot ilmining yetakchisi «Shayx ur – rais» – olimlar podshosi Abu Ali ibn Sino Sharqningina emas, balki butun insoniyatning faxr-iftixori, qomusiy aql egasi Abu Rayxon Beruniy, o'rta asr astronomiyasining yorug' yulduzi al-Farg'oni, hadis va fikhnining buyuk allomalari imom Ismoil Buxoriy, Abu Iso Termiziy, Xoja Ahmad Yassaviy, donishmand podshoh, yulduzlar jadvalining asoschilaridan biri Mirzo Ulug'bek, mumtoz she'riyatning yorqin yulduzlaridan hisoblangan Alisher Navoiy, Zahiriddin Muhammad Bobur singari yuzlab va minglab ulug' zotlar va ulamolar yetishib chiqqan. Sharqdan, xususan, Turkiston o'lkasidan yetishib chiqqan buyuk mutafakkirlar jahon ilm-fani va madaniyatini o'z kashfiyotlari va ulkan ilmiy asarlari bilan ijodiy boyitdilar, yuqori cho'qqiga ko'tardilar, uning bir necha asrlik taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatishdi.

Har bir millat jahon sivilizatsiyasida o'z o'rnini egallashga intilar ekan, u milliy madaniy meros bilan cheklanib qola olmaydi. Umuminsoniy qadriyatlarsiz insoniyat tomonidan ko'p asrlar davomida to'plangan tarixiy falsafiy, axloqiy, ilmiy va diniy merossiz mafkura haqida gapirish o'z-o'zini maqtashdan nariga o'tmaydi. Har bir xalqning tarixiy, madaniy va ma'naviy merosida umuminsoniy qadriyatlar ham o'ziga xos shakllar va ko'rinishlarda ifoda etilgan bo'ladi. Milliy qadriyatlarni tiklash jahon ma'naviyati va umuminsoniy qadriyatlardan ajralgan holda sodir bo'lmaydi. Milliy va umuminsoniy qadriyatlar o'zaro uzviy bog'langan, bir-biriga ta'sir etadi. Chunki, umuminsoniy qadriyatlarda butun insoniyatning, shu jumladan, o'zbek xalqining ham intilishlari o'z ifodasini topadi. Xalqimizning qadriyatlarga sodiqligini inobatga olib, insoniyat tomonidan yaratilgan, uning asrlar osha avaylab asrab kelgan adolat, insonparvarlik va tenglik an'alarini qayta tiklash, ularga yangi mazmun bag'ishlash, har bir kishining kamol topishiga erishish uchun zarur shart-sharoit yaratishda namoyon bo'lmoqda.

Zamonaviy sharoitda milliy tarbiya tushunchasi o'zida quyidagi ikki jihatni ham aks ettirayotganligini alohida ta'kidlab o'tish lozim: o'quvchilarni ommaviy madaniyat ko'rinishlari va ta'sirlaridan himoya qilishning ta'sirchan mexanizmi; o'quvchilarni ommaviy axborot xurujlaridan muhofaza qilishning samarali shakli, metod va vositalari tizimi. Sotsiologik, pedagogik-psixologik tadqiqot natijalariga tayangan holda, umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarini milliy tarbiyalash tizimi bilan bog'liqlikda uning namoyon bo'lish xususiyatlarini shartli ravishda ikki bosqichga ajratish mumkin: nisbatan sust (kichik maktab yoshi) va faol (o'smirlik davri).

Milliy tarbiyalanganlik ilk bosqichi milliy bilimlarning sustligi, o'z milliy mansubligini noaniqroq anglanishi, o'z millatiga mansub bo'lgan odamlar bilan umumiylikni unchalik aniq bilmaganligi bilan xarakterlidir. Ana shu sababli mazkur bosqichda bolaning milliy ruhda shakllanishida oila asosiy rol o'ynaydi. Oilada tashkil etiluvchi tarbiyaning aniq maqsadga yo'naltirilishi, ota-onalarning milliy qadriyatlar va oila tarbiyasini tashkil etishning pedagogik-



## PEDAGOGIKA

psixologik asoslaridan yetarli darajada xabardor bo'lishlariga erishish bugungi kunning muhim talabidir. Shuningdek, milliy tarbiyaning ilk bosqichida til birinchi darajali ahamiyatga ega. Ma'lumki, til milliy o'z-o'zini anglashning asosiy komponentlaridan biri hisoblanadi. Chunki til ona tili sifatida anglanadi va bu tilda ushbu millat vakillari o'zaro gaplashadilar. Milliy til orqali o'z millati a'zolari orasida o'zaro tushunishni, milliy madaniy ma'lumot, axborotlarni, madaniy merosni saqlagan holda avloddan avlodga o'tkazish ta'minlanadi.

Milliy tarbiyalanganlikning ikkinchi bosqichi o'smirlik davri (11-15 yosh)ni qamrab oladi. Bu davrning o'ziga xosligi o'z millatiga ongli munosabat, milliy o'z-o'zini anglashning shakllanishi o'smirlarda juda ko'p psixologik omillarga bog'liq ravishda amalga oshadi. Bolalarda o'z va o'zga xalqlarning tarixiga qiziqish yorqin namoyon bo'ladi. Mazkur bosqichda o'zga millat vakillariga qiyosan o'z millatining milliy madaniy va milliy psixologik xususiyatlari haqida tasavvurlar va baholar tizimi shakllanadi. Shuningdek, o'z xalqining tarixiy merosiga nisbatan milliy g'urur va iftixor tuyg'usi rivojlanib boradi. Yuqoridagi fikrlarga asoslangan holda, tadqiqotda «tarixiy tarbiya» masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi. Zero, tarixiy tarbiya yordamida millat birinchidan, «Biz kimmiz?», «Kimlarning avlodimiz?» degan savollarga javob izlash zamirida o'zining tarixiy ildizlarini anglashi, ikkinchidan, o'tmishda ro'y bergan jarayonlarni tahlil etish orqali ulardan bugungi kun uchun zarur saboqlar chiqarishi, uchinchidan, real voqelik, uni keltirib chiqargan sabablar, omillarni chuqurroq anglab yetishi va yo'l qo'yilgan xatolardan xulosa chiqargan holda ertangi kunining optimal yo'llarini belgilashi mumkin bo'ladi.

**XULOSA**

Xulosa qilganda, milliy va umummadaniy qadriyatlar tarbiyasi xolislik, obyektivlik, chuqur ilmiy tahlil asosida olib borilishi lozim. Ya'ni, bu yo'lda barcha harakatlar tarixiy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarga bog'liq holda tarixiy haqiqatni bilish, uni muhrlash, yosh avlodga xolisona yetkazishga yo'nal-tirilgan holda olib borilishi talab etiladi. Bunda buyuk mutafakkirlar ta'limotiga, boy milliy va umuminsoniy, ma'naviy-ma'rifiy qadriyatlarga asoslanishi ham maqsadga muvofiq.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. Файбуллаев О. Ёшлар онгига истиқлол ғоясини сингдиришнинг ижтимоий моҳияти ҳақида. //Ўзбекистонда ижтимоий фанлар.– 2005. – № 1-2.
2. Норматов И. Маънавият – бебаҳо бойлик. //Эркин ва фаровон ҳаётини юксак маънавиятсиз қуриб бўлмайди. – Т.:Ўзбекистон, 2006.
3. Поваренков Ю.П. Психологическое содержание профессионального становления человека / Ю.П. Поваренков. М.: Изд-во ИП РАН, 2002.
4. Рахимова Д. Историческое сознание как важнейший фактор формирования идеологии независимости. // Общественные науки в Узбекистане.– Ташкент, 2004. – № 2– 3.
5. Туленов Ж., Жабборов И. Тарихий онгни ривожлантириш – давр талаби. – Т.:Меҳнат, 2000.